



YO'L CHIZIKLARINING AHAMIYATI VA ULARNING TURLARI

*UCHKO'PRIK TUMAN I-SON POLITEXNIKUMI
AKBARALIEV JAVOHIR QAMBARALI O'G'LI*

Annotatsiya : mazkur maqolada yo'l chiziqlaring turlari rasimli ko'rinishda berilagan . Yo'l chiziqlarining ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'lar : yotiq chiziq , sidirg'a , reversiv , aylana , zebra , mintaqa

Yotiq chiziqlar yo'lning qatnov qismi yuzasidagi chiziqlar, yo'naltirgichlar, yozuvlar va boshqa belgilar harakatlanish tartibi va aniq rejimini belgilaydi. Yo'l chiziqlari doimiy yoki vaqtincha bo'lishi mumkin.Yo'l chiziqlarini ko'rish imkoniyati bo'lmasa (qor, loy va boshqalar) ushbu yo'l qismida mazkur chiziqlar ma'nosiga mos keladigan yo'l belgilari o'rnatilishi kerak.Yotiq chiziqlar oq rangda bo'ladi (1.4, 1.10 va 1.17 chiziqlar sariq rangda bo'ladi), shuningdek, 1.24 chizig'i (2×2 metr o'lchamdagи ko'k asosda sariq rangda nogironligi bo'lgan shaxsning tasviri tushirilgan bo'ladi).Piyodalar o'tish joyidagi chiziqlar oq va oq bilan birgalikda boshqa ranglar ko'rinishida qo'llanilishi mumkin.

1.1



qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport oqimlarini ajratadi, yo'lning xavfli joylaridagi harakatlanish bo'lagi chegarasini va velosipedchilar uchun bo'lagining chegarasini bildiradi; yo'lning kirish taqiqlangan qismi chegarasini belgilaydi; transport vositalarining to'xtab turish joyi chegarasini hamda avtomagistral qatoriga kiritilmagan yo'lning qatnov qismi chegarasini bildiradi;



1.2



(enli sidirg'a chiziq) —

avtomagistrallarda qatnov qismi chetini bildiradi.

1.3



to‘rt va undan ortiq harakatlanish bo‘lagi bo‘lgan yo‘llarda qarama-qarshi yo‘nalishdagi transport vositalari oqimini ajratadi;

1.4



to‘xtash taqiqlangan joyni bildiradi. Yakka holda yoki 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi bilan qo‘llaniladi hamda yo‘lning qatnov qismi chetiga yoki yo‘l chetidagi to‘sinq ustidan chiziladi (xizmat vazifasini bajarayotgan xodimga biriktirilgan ko‘k yoki qizil yoxud ko‘k va qizil rangli yaltiroq mayoqchasi bilan jihozlangan hamda maxsus rangli bo‘yoq sxemalar va yozuvlar bilan belgilangan transport vositalari bundan mustasno).

1.5



ikki yoki uch tasmali yo‘llarda qarama-qarshi yo‘nalishlarda harakatlanayotgan transport vositalari oqimlarini ajratadi; bir yo‘nalishda harakatlanish uchun mo‘ljallangan ikki yoki undan ko‘proq tasmali yo‘llarda tasmalarning chegaralarini va bir



yo‘nalishdagi harakatlanish bo‘lagi bilan velosiped bo‘lagi chegarasini bildiradi;

1.6




(yaqinlashish chizig‘i — har bir chiziq uzunligi ular orasidagi masofadan uch barobar katta bo‘lgan uzuq-uzuq chiziq) — qarama-qarshi yoki bir yo‘nalishda harakatlanayotgan transport vositalari oqimlarini ajratuvchi 1.1 yoki 1.11 chizig‘iga yaqinlashayotganlik haqida ogohlantiradi;

1.7



(har bir chizig‘i qisqa va oralari shu chiziqlar bo‘yiga teng bo‘lgan uzuq-uzuq chiziq) — chorrahadagi harakatlanish tasmalarini bildiradi;

1.8



(enli uzuq-uzuq chiziq) — tezlashish yoki sekinlashish bo‘lagi bilan yo‘lning qatnov qismidagi asosiy bo‘lagi o‘rtasidagi chegarani bildiradi (chorrahalarda, yo‘lning turli sathda kesishgan qismlarida, avtobuslar to‘xtaydigan joylarda va boshqalar);

1.9



reversiv harakat tashkil etilgan bo‘laklarning chegarasini belgilaydi; reversiv harakatlanish amalga oshirilgan yo‘llarda (reversiv svetofori o‘chirilgan

holatda) qarama-qarshi yo‘nalishdagi transport oqimini ajratadi;

1.14.2



(**oq-sariq rangli “zebra”**) — piyodalarning o‘tish joyini belgilaydi;

1.1 va 1.3 chiziqlarini bosib o‘tish taqiqlanadi, qatnov qismining chetini bildirish uchun qo‘llanilgan 1.1 chizig‘i bundan mustasno.

1.2, 1.5 — 1.8 chiziqlarini istalgan tomondan bosib o‘tish mumkin.

Reversiv svetoforlar bo‘lmaganda yoki ular o‘chirib qo‘yilganda, 1.9 chizig‘ini faqat u haydovchining o‘ng tomonida bo‘lsa, bosib o‘tishga ruxsat etiladi.

Reversiv svetofor yoqilgan paytda bir yo‘nalishli tasmalarni ajratayotgan 1.9 chizig‘ini istalgan tomondan bosib o‘tishga ruxsat etiladi. Reversiv svetofor o‘chirilganda, haydovchilar darhol 1.9 chizig‘idan o‘ngga qayta tizilishlari kerak.

Reversiv svetofor o‘chirilgan bo‘lsa, qarama-qarshi yo‘nalishdagi transport oqimlarini ajratuvchi 1.9 chizig‘ini bosib o‘tish taqiqlanadi.

1.11 chizig‘ini uzuq-uzuq chiziq tomonidan, sidirg‘a chiziq tomonidan esa faqat quvib yoki aylanib o‘tishni tugatayotganda bosib o‘tishga ruxsat etiladi.

Yo‘l belgilarining, shu jumladan, vaqtincha yo‘l belgilarining va yotiqlarini chiziqlarining ma’nolari bir-biriga zid kelgan hollarda yoki yo‘l chiziqlarini yetarlicha farqlab bo‘lmasa, haydovchilar yo‘l belgilariga amal qilishlari kerak.

Adabiyotlar royhati :

Vaqtincha yo‘l chiziqlarining va doimiy yo‘l chiziqlarining ma’nolari bir-biriga zid kelgan holla Yo‘l belgilari“,  *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*: 2-jild (*Beshik — Gidrofizika*). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2001